



PRESS-RELIZ

2022-yil 19-noyabr

### **“Milliy jurnalistika: an'analar davomiyligi va zamonaviylik” mavzusidagi II mediaforum to‘g‘risida**

**2022-yil 19-noyabr kuni “Navoiy kon-metallurgiya kombinati” aksiyadorlik jamiyatni O‘zbekiston Jurnalistlari ijodiy uyushmasi bilan hamkorlikdagi “Milliy jurnalistika: an'analar davomiyligi va zamonaviylik” mavzusidagi II mediaforumi boshlandi.**

Ikkinci marta tashkil etilgan mediaforumda mamlakatimizning hududlaridan tashrif buyurgan ommaviy axborot vositalari vakillari va jurnalistlar hamda O‘zbekiston Respublikasida akkreditatsiyadan o‘tgan xorijiy jurnalistlar ishtirok etmoqda.

Eslatib o‘tamiz, Milliy jurnalistika: an'analar davomiyligi va zamonaviylik” mavzusidagi I mediaforum joriy yilning 25-30-mart kunlari Navoiy shahrida o‘tkazilgan edi. Mediaforum ishtirokchilari uchun “NKMK” AJ bo‘linmalari – Navoiy mashinasozlik zavodi, 5-gidrometallurgiya zavodi, “Muruntov” koni va 7-gidrometallurgiya zavodiga press-turlar o‘tkazilgan bo‘lib, ular korxonalarda amalga oshirilayotgan ishlab chiqarish jarayonlari bilan yaqindan tanishgan edi.

O‘zbekiston Jurnalistlari ijodiy uyushmasi raisi Olimjon O‘sarov, O‘zbekiston Milliy Axborot agentligi bosh direktori Abdusaid Ko‘chimov, O‘zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti rektori, O‘zbekiston Milliy media assotsiatsiyasi boshqaruvi raisi Sherzodxon Qudratxo‘ja, “Ishonch” va “Ishonch-Doveriye” gazetalari bosh muharriri Husan Ermatov kabi taniqli jurnalistlar – II mediaforum mehmonlari. Shuningdek, Buyuk Britaniyaning “Reuters”, Xitoyning “Sinxua”, Turkiyaning “Anadolu”, Rossiyaning “RIA Novosti”, “TASS”, “Sputnik”, Eronning “Fars news”, Qozog‘istonning “Xabar”, “Kazinform” axborot agentliklari va boshqa xorijiy OAV vakillari mediaforumda qatnashmoqda.

Mediaforumining birinchi kunida ishtirokchilar uchun “NKMK” AJ Janubiy kon boshqarmasining Samarqand viloyat Qo‘shrabot tumani Zarkent qo‘rg‘onida joylashgan “Zarmitan” koniga press-tur tashkil etildi. Jurnalistlar kon faoliyati bilan yaqindan tanishdilar hamda ishchi-xodimlar bilan suhbatlashdilar.

Tadbirning ikkinchi kunida Jizzax viloyati Zomin tumanidagi “NKMK” sanatoriysida “Milliy jurnalistika: an'analar davomiyligi va zamonaviylik” mavzusidagi II mediaforumining tantanali ochilish marosimi o‘tkaziladi.

Mediaforum davomida xalqaro media-ekspertlar – Xitoy, Turkiya, Rossiya, Eron davlatlarining jurnalistlari mahorat darslarini o‘tishadi. Shuningdek, tadbir

ishtirokchilari o‘rtasida madaniy tadbirlar va voleybol, stol tennisi, shaxmat va shashka sport turlari bo‘yicha musobaqalar o‘tkaziladi.

### **Ma’lumot uchun:**

**“Navoiy kon-metallurgiya kombinati” aksiyadorlik jamiyati (“NKMK” AJ)** jahonda oltin ishlab chiqaruvchi yirik kompaniyalar beshtaligiga kiradi. Kombinat yer osti boyliklari zaxiralarini geologik qidirish, qazib olish va qayta ishslashdan to‘tayyor mahsulot olishgacha bo‘lgan ishlab chiqarish jarayonlari to‘liq amalga oshiriladigan yirik sanoat klasteridir. Kombinat zamonaviy kon-transport va texnologik uskunalar, ilg‘or texnologiyalar bilan jihozlantirilgan konlar, zavodlarga ega zamonaviy korxonadir.

#### **Murojaat uchun ma’lumotlar:**

“NKMK” AJ Matbuot xizmati, Ish telefonlari: +99879 227-75-88

“NKMK” AJ rasmiy veb-sayti: [www.ngmk.uz](http://www.ngmk.uz)

“NKMK” AJning ijtimoiy tarmoqlardagi rasmiy sahifalari:

[t.me/ngmkofficial](https://t.me/ngmkofficial), [www.fb.com/nkmkofficial](https://www.fb.com/nkmkofficial), [instagram.com/nkmk.official](https://instagram.com/nkmk.official), [www.youtube.com/nkmkofficial](https://www.youtube.com/nkmkofficial)